

**ODAM ANATOMIYASI KAFEDRASIDA ZAMONAVIY TA'LIM
TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH****Abdivaliev A.A.****302 gr. stomatologiya fakulteti.****K.S.Sheraliev****Доп, “Alfraganus Universiteti” “Tibbiyot” kafedrası.****E- mail:kambaralisheraleiev@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18694445>**

Zamonaviy ta'limda nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish. ularda faoliyati yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, talabalar faoliyatini nazorat qilish, egallagan bilim va ko'nikma darajasini baholash o'qituvchidan yuksak mahorat talab etib, uni ta'lim jarayniga yangicha yanda - shyvga chorlaydi va by zamon talabidir.

Mavzuni og'zaki bayonida o'zlashtirish 10% tashkil etishi sababli, amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari yordamida olib borish lozim. Zamonaviy o'quv qo'llanmalariga: uskunalar, yordamchi o'quv qo'llanmalari va o'quv-uslubiy materiallari kiradi va u:

A) o'quv materiallarini tasvirlash va ko'rgazmali qilish, uni tushunish va eslash,

B) talabalarni o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishini va ulardan unumli foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ta'lim vositalari quyidagilarga bo'linadi:

1. Teknik ta'lim vositalari
2. Yordamchi o'quv vositalari,
3. O'quv-uslubiy materiallar.

Ko'p ishlatiladigan yordamchi o'quv vositalaridan biri grafik o'rganayzerlar, tabiiy-moddiy modellar, namunalar, shartli grafik tasvirlardir.

Ta'lim vositalarini tanlash.

Talabalarining o'quv va ijodiy faoliyatini jadallashtirishga yordam beradigan tanlov, turli xil o'quv muhitlarining maqbul birikmasi va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq:

- maqsadga muvofiqlilik.
- ilmning yetakchi manbasi.
- o'quv uslublari.
- o'quv materialining yangiligi, murakkabligi va qiyinchiliklari.
- talabalarining ta'lim olish imkoniyatlari.

Klaster(g'uncha)uslubini odam anatomiyasi fanini o'zlashtirishda qo'llanilishi.

Klaster uslubi pedagogik, didaktik strategiyaning birshakli bo'lib, u o'quvchilarga mavzular yuzasida erkin o'ylash va o'z fikrlarini bayon qilishga undaydi. Uslub mavzuni o'quvchilar puxta o'zlashtirishini, qo'shimcha tushunishlarni shakllanishini va amaliyotda joriyetishni ta'minlaydi.

Sinf doskasi markazida yoki katta qog'ozda kalit so'z yo'ki 1-2 so'zdan iborat mavzuning nomi yoziladi va kalit so'z bilan chiziq yordamida birlashtiriladi. Kalit so'zlar bilan bog'liqligi asosida uni bir tarafga "sun'iy yo'ldosh" so'zlari yo'ki kichikroq doiralarda mavzu bilan bog'liq jumlar yoziladi. Ular "asosiy" so'zlar bilan chiziqlaryordamida bir – biriga bog'lanadi. Bu "sun'iy yo'ldoshlar"ni "kichik sun'iy yo'ldoshlari" va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu tariqa yozish vaqtning tugashigacha yoki g'oyalar tugamaguncha davom etadi.

“Klaster” uslubidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati t o‘hrida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang
3. Belgilangan vaqt dovomida, yozishdan to‘htamang. Ma’lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chizing. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunga qadar davom ettiring.
4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bo‘g‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifatli va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.